


Qashqadaryo Do'ppi

Milliy qadriyat, urf-odat, an'ana



Tarix

- **Qashqadaryo vohasi** o'zining ko'p ming yillik tarixi, madaniyati va boy milliy qadriyatlari bilan ajralib turadi. Qashqadaryo viloyatining milliy liboslari jumladan, bosh kiyimlari ham boshqa hududlardan rang -barangligi jihatidan ajralib turadi.
- Qashqadaryo viloyatida kamalak ranglarini o'zida jamlagan **gilam do'ppilar** ayniqsa mashhur.
- Gilam do'ppi-tepasi va kizagi gilamlarning naqshiga o'xshatib, ip, ipak va rangli mulina ipi bilan zich qilib tikiladi. Shakli ham **boshqa hududlardan biroz farq qilib, yarim konussimon qilib tikiladi.**



Qashqadaryo vohasi erkaklarining bosh kiyimlarida bir qadar o'ziga xoslik saqlanib qolgan bo'lib, ular **qalpoq, kallapo'sh, do'ppi, taxya** kabi nomlar bilan atalgan.

Boshqa viloyatlar singari Qashqadaryoda ham eng keng tarqalgan bosh kiyimi do'ppi bo'lgan. Qashqadaryoda bu bosh kiyim ko'pincha **qalpoq** nomi bilan atalgan.




Shahrizabz erkaklar gilam do'ppisi. XX asr.



Shahrizabz erkaklar iroqi do'ppisi.
Uchi konussimon tugallangan. Sanama chok bilan iroqi nusxa tikilgan.
Oq asosga rangli iplar yordamida lola guli tasviri tushirilgan.


Qalpoqning kashta naqshi, nusxalarning joylashuvi, ip rangi, tikish usuli bilan farqlanadigan erkaklar va ayollar, jumladan, o'g'il va qiz bolalar uchun mo'ljallangan naqsh turlari mavjud. Qalpoq turi, unga ishlatiladigan taglik mato, kashta tikish asboblari, do'ppi qismlari nomiga ham bog'liq. Masalan, erkak qalpoq, qizqalpoq, kuyovqalpoq, shabpo'sh (tungi qalpoq), iroqi, shirozi kabi umumiy turlari nomi; kanva (to'r), surp, bo'z, shoyi, satin, avra, astar singari taglik mato nomlari; ip, igna, angusht kabi xom-ashyo, asbob nomlari; tepa, kizak, qur, gardish, jiyak kabi do'ppi qismlari nomlari do'ppido'zlikka ham, zardo'zlikka ham, kashtado'zlikka ham yo bevosita, yoki bilvosita aloqador.





Yuqori Qashqadaryo kashtachiligida, ayollar qalpog'i, odatda to'rtburchak (to'garak) shaklida tayyorlanib, uch qism – tepa, kizak va qur (jiyak)dan tashkil topadi. Tepa va kizak qismi kashtali bo'lib, qur qismi ko'p hollarda kashtasiz qora baxmal yoki ipak matodan tayyorlanadi. **Kitob, Shahrisabzda** hozirgi paytda ham yuz ko'rsatar marosimida kelin tomoni kuyovning har bir erkak qarindoshiga kiyimlikka (sarpo) tikma **qalpoq sovg'a qiladi.** Kuyovning erkak qarindoshlari soniga qarab **10tadan 100tagacha** ham qalpoq tarqatishga to'g'ri keladi. Bu esa ancha murakkab mehnatni talab qilib, ko'pincha **kelinlar sherozi jiyakli qalpoq tayyorlaydilar.** Bugungi kunda ham aynan sarpo uchun tayyorlanadigan qalpoqlar sherozi qalpoq deb yuritiladi.

Do'ppi asosan baxmal, sidirg'a, shoyi, satin kabi matolarga ip, ipak, zar bilan kashta tikib tayyorlangan. Voha do'ppilarining qubbasimon, gumbazsimon, dumaloq shakllari mavjud bo'lgan. Ayniqsa ularga tikilgan kashtalarning boyligi, bezakdorligi, ba'zan yirik ba'zan to'rsimon bezaklar qo'llanilganligi bilan ajralib turadi.



O'zbekiston davlat san'at muzeyi

Shahrisabz iroqi do'ppisi XX asr

Dumaloq gumbazsimon ko'rinishda tikilgan. Jiyagi ham guldor qilib yakunlangan. Markazda quyosh ramzi va markazdan chetga qarab qizil lola timsoli ifodalangan. Bu sakkiz qirrali yulduz tasvirini ham eslatadi.





Shahrisabzning gilam do‘ppilarida gilamlarda qo‘llaniladigan iplar va chok turlaridan, naqshlardan foydalaniladi. Ayollar gilam do‘ppilari va gilamlarning chetki qismlarida **“ilon izi” naqsh turidan foydalaniladi.** Bu naqsh yomon ko‘zlardan himoya qiluvchi belgi sifatida ishonilgan.



Shahrisabzning gilam do'ppilari tepa va kizaklari yaxlit (ipak va ipdan) to'qilgan. Qashqadaryo do'ppilari gilamga o'xshash tusda, kamalaksimon jilolanuvchi ranglarda xilma-xil qilib tikiladi. Do'ppining ustki qismiga va jiyagiga **guldor geometrik naqshlar** bilan ishlov beriladi.



**Shahrisabz erkaklar gilam do'ppisi.
1950 yil.**

**Dumaloq qubbasimon shakldagi
gilamnusxa do'ppi. Oq-sarg'ish fonga
yashil va qizil ranglardan foydalanib
gilamsimon naqshlar tushirilgan. Jiyagi
naqshdor qilib ishlangan. Chetki
qismlari arrasimon naqsh bilan
yakunlangan.**

Shahrisabzda ko'proq rang-barang naqshli bosma nusxa gilam do'ppilar tikish an'anasi mavjud bo'lgan. Shuningdek, **Shaxrisabz do'ppido'zlari Samarqand maktabiga xos** do'ppilar ham tikishgan. **Konussimon chakmatur do'ppilar** Qarshi cholida yashovchi chorvador aholining asosiy bosh kiyimi bo'lgan.



Shahrisabz gilam do'ppisi. XX asr.
asosan oq va qora ranglar uyg'unligidan foydalanib tikilgan. Rang uyg'unligi hamda jiyak qismidagi ramziy belgi dunyoning doimiy harakatda va tun hamda kunning abadiyligiga ishoradir.

Shahrisabz do'ppilarida ham Farg'onacha naqsh uslublarini ko'rish mumkin. Vohaning qalampir nusxa do'ppilari vodiyning chust do'ppisidan farqli o'laroq, tepa va kizak qismidan iborat gilamnusxa qilib tikiladi. Jiyagida esa ilon izi naqshidan foydalaniladi.



Shahrisabz iroqi do'ppisi

Bundan tashqari Shahrisabz iroqi do'ppilari bilan ham mashhur bo'lgan. Vohaning iroqi do'ppilarida Respublikaning boshqa hududlarida uchramaydigan bezaklardan foydalanilgan.

XX asr boshlarigacha bunday do'ppilarning yuqori qismiga qo'g'irchoq shaklidagi odam tasviri tushirilgan. Bunday do'ppilar sanama chok bilan tikilgan.

Sanama, piktadozi nomlari bilan ataluvchi kashta choki. Ikki tomonlama tikilgan. Turli yo'naluvchi yani chapdan o'ngga, yuqoridan pastga, pastdan o'ngga sidiq'a tikib hosil qilinadi. Yonma-yon tikiladigan choklar bir tekis kichikdan kattalashib, kattadan kichiklashib boradi. Do'ppi kashtalarida judda keng foydalaniladi.



Iroqi do'ppi O'zbekistonda dastlab Shahrisabzda urf bo'lib, so'ngra boshqa shahar va qishloqlarga tarqalgan, keyinchalik bu do'ppi ham har bir shaharning o'ziga xos bezak usulida yaratila boshlagan (rivoyatlarga qaraganda, Amir Temur Iroqdan turli hunarmandlar qatorida do'ppido'zlarni ham keltirgan, shu sababli ular tikkan do'ppi iroqi deb nom olgan).

Do'ppining bu turi iplari sug'urilib, to'r holiga keltirilgan surpga rangdor ipak yoki ingichka tolasi paxta ipi bilan tikiladi: buning 2 usuli; terma va bosma usullari bor. Eng yaxshi iroqi do'ppilar Shahrisabz va Kitob do'ppido'zlari tomonidan tayyorlanadi.



Shahrisabz 1957 yil. Tepa va kizagi yaxlitiroqi nusxada tikilgan. O'zbekiston amaliy san'ati va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyida saqlanadi.

Shahrisabzlik hunarmand ayollar qo'llari bilan yaratilgan iroqi do'ppini qarangki, do'ppi kashtachilari ijodida shoyi iplar bilan tikilgan **muhtasham va betakror naqshlar o'z aksini topgan**. Ular asrlar davomida shakl va dizaynning **nafisligi va nozikligini saqlab qolishgan**.



Shahrisabzning gilam do'ppisi konussimon shakli bilan farqlanadi. Bu do'ppilardagi kolorit oq, qora, qizil, sariq yoki siyohrang ranglar uyg'unligida hosil bo'ladi. Ba'zida ko'pgina naqshlar qizil-qora chizgilar bilan oq fonda beriladi.

Shahrisabz va Kitob do'ppilaridagi naqshlar ikki turga bo'linadi. "Sanama" do'ppisidagi naqsh yonlama qator qilib joylashtiriladi, "chizma" do'ppida esa naqsh do'ppi tepasi aylanasiida yig'ilib, aylana shaklida tik yo'nalishda taraladi.



Shahrisabzning erkaklar iroqi do'ppilari. Bu do'ppilarning ayollar do'ppisidan farqi shakli va rangidadir. Erkaklarning iroqi do'ppilarida asosan to'q ranglardan foydalanilgan bo'lib, o'rtasi gumbaz shaklida tikilgan. Ayollarning do'ppilarida esa to'rtburchak shaklda va och ranglardan foydalanilgan. Iroqi do'ppi Shahrisabzda keng urf bo'lgan, keyinchalik boshqa joylarga tarqalib, har bir mahalliy joyning o'ziga xos bezak usulida yaratila boshlandi. Do'ppining bu turida kashta iplari sug'irilib to'r holiga keltirilgan matoga rangli ipak yoki ingichka tolali paxta ipi bilan iroqi chok(terma va bosma usuli)da tikiladi.



Iroqi uslubida tikilgan tagi oq ipakdan fon berilgan shoparchin nusxa, astarli, kizagi yashil rangdagi Shahrisabz ayollar do'ppisi.



Matosi qora rangda, qizil, siyoh, sariq va yashil rangli ipaklarda turli xil naqshlar bilan tikilgan erkaklar do'ppisi.

Shahrisabz iroqi do'ppilarining naqshlarida asosan lola gulidan keng foydalanilgan. Bu gul nafosat, noziklik, tinchlik ramzini ifodalagan va bunday iroqi do'ppilar "Laylo" do'ppilari deb ataladi.



Farg'onacha uslubda tovus nusxada tikilgan ayollar do'ppisi. Chetlari qoramag'iz bilan baxyalangan. Ranglari turli ranglar uyg'unligida namoyon bo'ladi.

Shoparchin uslubida iroqi nusxada qo'l mehnati yordamida tikilgan Shahrizabz do'ppisi. Tepa va kizak qismlaridan iborat. Ko'k rangdagi ushbu do'ppi moviy va tiniq osmon ostida hayot kechirayotgan **hayvonlar, gullar, qushlar va o'simliklarga** ishora ma'nosini ifodalaydi.



Doirasimon shakldagi do'ppi. Yon qismiga qo'l mehnati yordamida ipdan gul va popuk tikilgan. Chetlariga iroqi uslubida **jiyak** tikilgan.



Farg'ona viloyati iroqi uslubida tikilgan **Shahrisabz ayollar iroqi do'ppisi**. Gardishi baxmal bilan xoshiyalangan. Tepa qismi to'rt qismga ajratilgan. Geometrik shakllar yordamida yaxlit to'pbarg hosil qilingan.



Guldo'zi uslubida tikilgan **Shahrisabz iroqi do'ppisi**. Tepa va kizak qismlaridan iborat.






Shahrisabz erkaklar do'ppisi. 1950 yil.
Chizma uslubida tikilgan.



1959yil sanamachok asosida tikilgan dumaloq
erkaklar do'ppisi.

O'zbekiston amaliy san'ati va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi kolleksiyasida
saqlanayotgan gilam do'ppilar





Qashqadaryo iroqi do'ppilarini ayollar, qizlar, o'g'il bolalar, erkaklar ham kiyishgan. Qarshi va Shahrisabzning yorqin rang-barangligi, to'y-hashamlari ularga ta'sir ko'rsatgan. Aynan shuning uchun ham bayramona ko'rinishga ega bo'lgan do'ppilar kiyishgan.

Bu do'ppilar baxmal, rangli iplari, shoyi va boshqa bezaklar bilan ishlov berilgan.



Qashqadaryoning ayollar bosh kiyimlari rang-barangligi, kashtasining usuli va ularning kompozitsiyasi bilan ajralib turadi. Iroqi usulidagi gilam kashtalari ularning o'ziga xosligini belgilab, O'zbekistonning boshqa hududi bosh kiyimidan farqlangan. Kulta yoki kiygich eng keng tarqalgan bosh kiyimi edi. Ushbu yumaloq shakldagi bosh kiyimining tepasiga jiyak tikilib, tepa qismi qat-qat bo'lgan. Ayollar kulta ustidan rang-barang ro'mollar o'ragan.

Bosh kiyim bir nechta funksiyalarni (amaliy va mafkuraviy) bajargan va bir vaqtning o'zida ayollar kiyimida juda muhim rol o'ynagan. Qashqadaryolik ayollarning bosh kiyimlari boshqa viloyat ayollari bosh kiyimlaridan o'zining rang-barangligi, yasash texnikasi va bezakli kompozitsiyasi bilan ajralib turardi. Eng mashhurlari "**kulta**" yoki "**kijigich**" bo'lib, ular chetida o'ralgan dumaloq qalpoqni va orqa tomonida osilgan o'ralgan ustki dumaloqni ifodalaydi. Tepasi yassi dumaloq bo'lgan o'xshash bosh kiyim "**chochkon**" deb atalgan va "**iroqi**" tikuvda tikilgan gilamga o'xshash kashta bilan to'liq qoplangan fon bilan ajralib turardi.





Ayrim tumanlarda ayollar kiyadigan eski ayol bosh kiyimi – “**chambar shox**” o'ziga xosdir. Unda o'nta shoxsimon ro'mol bor. Amaliy vazifani bajarib, ayolning boshini **jazirama quyoshdan himoya qilgan**. Ayollar yuqorida tilga olingan bosh kiyimlardan tashqari yoshi va didiga qarab turli shakl va naqshli boshqa ro'mollar ham kiyishgan.



IJTIMOIY-MA'NAVIY
TADQIQOTLAR INSTITUTI

MT
METODIK
TARG'IBOT



E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT.

- ☎ 99855-503-41-90
- ✉ imtiuz@umail.uz
- 🌐 <https://t.me/targibotmaterial>
https://t.me/ijtimoiy_manaviy_tadqiqotlar
- 📍 Toshkent shahar, Bobur ko'chasi 9 uy.
- 👤 K.To'rayev, Nurullayeva Zulayho